

Qoraqalpog'iston bo'ylab ilmiy-tadqiqot ishlari davom etmoqda

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti va Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi xodimlari hamkorlikda Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir, Karauzyak, Qanliko'l va Kegeyli tumanlarining belgilangan asosiy hududlarida "Qoraqalpog'istonning kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvon turlari kadastri" loyihasi doirasida ekspeditsiya tashkil qilindi.



Ekspeditsiya davrida Beltog' platosining chinkoldi tekisliklari, Karatereng va Dovutko'l ko'llari, Akpetki va Jaltirbas ko'llar tizimi hamda Kuskantog'da (Tasmanko'l va Tuzli ko'llari) izlanishlar olib borildi. Ushbu hududlarning har biri o'rganish, doimiy monitoring olib borish va muhofazaga muhtoj bo'lgan nodir zoologik komplekslar hisoblanadi.

Ekspiditsiya jarayonida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan qushlardan 18 tur - qizil g'oz, kichik qoravoy, kichik oq qarqara, qoravoy, qoshiq burun, vishildoq oqqush, pushti va jingalakli saqoqqushlar, oqbosh o'rdak, oqko'z, katta uzunburun baliqchi, katta veretennik, ilonxo'r burgut, burgut, cho'l burguti, oq dumli suvburgut va dasht miqqysi, sudralib yuruvchilardan - O'rta Osiyo cho'l toshbaqasi va qum bo'g'ma iloni, sutevizuvchilar orasida jayron va qora ignali tipratikanlarga doir ma'lumotlar olindi. Jami sudralib yuruvchilardan 10 tur, qushlardan 50 dan ortiq tur va sutevizuvchilardan 13 tur hisobga olindi.



Yuqorida keltirilgan umurtqali hayvonlardan tashqari mintaqada uchun qiziqarli bo'lgan Matrap to'garakboshi, kichik baliqchi, qizqush, xo'ja savdogar, to'qay mushugi kabi turlar ham uchratildi.

Olingan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobining keyingi nashrlarini tayyorlaganda ma'lumotlarni yangilashda va Qoraqalpog'iston kadastr ba'zasini to'ldirishda, shuningdek, yovvoyi tabiatdan turlarni olish uchun qaror qabul qilganda muhim rol o'ynaydi.

M.A.Gritsina va T.V.Abduraupov,

FA Zoologiya instituti kichik ilmiy xodimlari